



journal homepage:

<https://www.supportscience.uz/index.php/ojhpl>

## THE FOUNDATION OF THE THIRD RENAISSANCE: THE SYNTHESIS OF HISTORICAL CONTINUITY AND CIVILIZATIONAL MODERNIZATION IN THE SPIRITUAL TRANSFORMATION OF CENTRAL ASIA

**Javlon Saidrakhmonovich Iymanov**

*Non-Governmental Educational Institution “University of Economics and Pedagogy”*

*Acting Professor of the Department of Social and Humanitarian Sciences*

[Iymanov81@umail.uz](mailto:Iymanov81@umail.uz)

*Tashkent, Uzbekistan*

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** Third Renaissance, Hybrid model, axiological immunity, digital humanism, existential security, Central Asia, civilizational code, intellectual pragmatism.

**Received:** 28.04.26

**Accepted:** 29.04.26

**Published:** 30.04.26

**Abstract:** This article provides a philosophical and methodological analysis of the transformation processes within the spiritual space of Central Asia and the civilizational parameters of the Third Renaissance. The study substantiates a “Hybrid Model” of regional modernization based on the formula “historical experience + technological innovation”. The author explores mechanisms for ensuring the existential security of the region through concepts such as “axiological immunity”, “new spiritual anthropology”, and the “civilizational code”. The functional significance of the heritage of Al-Farabi, Al-Biruni, and Navoi in the context of a digital society is systematized.

## UCHINCHI RENESSANS POYDEVORI: MARKAZIY OSIYO MA’NAVIY TRANSFORMATSIYASIDA TARIXIY VORISIYLIK VA SIVILIZATSIYAVIY MODERNIZATSIYA SINTEZI

**Javlon Saidrakhmonovich Iymanov**

*“University of economics and pedagogy” NOTM*

*“Ijtimoiy gumanitar fanlar” kafedrasi professori v.b.*

[Iymanov81@umail.uz](mailto:Iymanov81@umail.uz)

*Toshkent, O‘zbekiston*

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit soʻzlar:** Uchinchi Renessans, Gibrid model, aksiologik immunitet, raqamli gumanizm, ekzistensial xavfsizlik, Markaziy Osiyo, sivilizatsiyaviy kod, intellektual pragmatizm.

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Markaziy Osiyo maʼnaviy makonining transformatsiya jarayonlari va Uchinchi Renessansning sivilizatsiyaviy parametrlari falsafiy-metodologik jihatdan tahlil qilingan. Tadqiqotda mintaqaviy modernizatsiyaning “Gibrid modeli” asoslab berilgan boʻlib, u “tarixiy tajriba + texnologik innovatsiya” formulasiga tayanadi. Muallif tomonidan “aksiologik immunitet”, “yangi maʼnaviy antropologiya” va “sivilizatsiyaviy kod” kabi tushunchalar orqali mintaqaning ekzistensial xavfsizligini taʼminlash mexanizmlari ochib berilgan. Shuningdek, Forobiy, Beruniy va Navoiy merosining raqamli jamiyatdagi funksional ahamiyati tizimlashtirilgan.

---

## ОСНОВА ТРЕТЬЕГО РЕНЕССАНСА: СИНТЕЗ ИСТОРИЧЕСКОЙ ПРееМСТВЕННОСТИ И ЦИВИЛИЗАЦИОННОЙ МОДЕРНИЗАЦИИ В ДУХОВНОЙ ТРАНСФОРМАЦИИ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

**Жавлон Саидрахмонович Ийманов**

*НОТМ «University of Economics and Pedagogy»*

*и.о. профессора кафедры «Ижтимоий гуманитар фанлар»*

[lymanov81@umail.uz](mailto:lymanov81@umail.uz)

*Ташкент, Узбекистан*

---

### О С Т А Т Ь

**Ключевые слова:** Третий Ренессанс, гибридная модель, аксиологический иммунитет, цифровой гуманизм, экзистенциальная безопасность, Центральная Азия, цивилизационный код, интеллектуальный прагматизм.

**Аннотация:** В данной статье философско-методологически анализируются процессы трансформации духовного пространства Центральной Азии и цивилизационные параметры Третьего Ренессанса. В исследовании обоснована «Гибридная модель» региональной модернизации, основанная на формуле «исторический опыт + технологические инновации». Автор раскрывает механизмы обеспечения экзистенциальной безопасности региона через такие понятия, как «аксиологический иммунитет», «новая духовная антропология» и «цивилизационный код». Систематизировано функциональное значение наследия Фараби, Беруни и Навои в условиях цифрового общества.

---

**Kirish.** Bugungi global sivilizatsiya o'zining navbatdagi transformatsion bosqichiga qadam qo'ydi. Markaziy Osiyo, tarixan jahon madaniyati va fanining o'choqlaridan biri sifatida, o'zining ma'naviy-intellektual salohiyatini yangi sharoitlarda qayta namoyon etish imkoniyatiga ega bo'lmoqda. Uchinchi Renessans strategik g'oyasi shunchaki siyosiy-ijtimoiy shior emas, balki chuqur falsafiy-antropologik asoslarga ega bo'lgan sivilizatsiyaviy loyihadir.

Tadqiqotning dolzarbligi shundaki, mintaqada kechayotgan ma'naviy transformatsiyalar "o'tmishga qaytish" emas, balki o'tmish tajribasini zamonaviy texnologik va ijtimoiy yutuqlar bilan sintez qilish orqali yangi sifat bosqichiga chiqishni talab etmoqda.

Markaziy Osiyo ma'naviy makonining transformatsiyasi va sivilizatsiyaviy rivojlanish masalalari zamonaviy falsafiy diskursning markazida turibdi. Xususan, S.Xonigton [1] o'zining sivilizatsiyalar to'qnashuvi nazariyasida Markaziy Osiyoni islom sivilizatsiyasining ajralmas qismi sifatida ko'rsatsa-da, uning ichki transformatsion dinamikasiga yetarlicha e'tibor qaratmagan. Bizningcha, mintaqani faqat diniy-madaniy blokning tarkibiy qismi sifatida baholash uning ichki intellektual salohiyati va o'ziga xos sivilizatsiyaviy subyektligini cheklab qo'yadi. Aslida Markaziy Osiyo transformatsiyasi "to'qnashuv" emas, balki global sivilizatsiyalar o'rtasidagi "muloqot va integratsiya markazi" vazifasini qayta tiklashga yo'naltirilgan.

Mintaqaviy tadqiqotlar kontekstida o'zbek faylasufi M.N.Abdurahmonova ma'naviy merosning vorisiylik tamoyillarini o'rganar ekan, shuni ta'kidlaydiki: "Ma'naviy meros - bu shunchaki o'tmish yodgorligi emas, balki jamiyatning intellektual xavfsizligini ta'minlovchi tirik mexanizmdir" [2]. Biroq, uning qarashlarida raqamli modernizatsiyaning ma'naviy qadriyatlar sinteziga ta'siri masalasi fundamental tahlil etilmagan. Muallif tomonidan ilgari surilgan "intellektual xavfsizlik" tushunchasini kengaytirgan holda ta'kidlash joizki, zamonaviy transformatsiya jarayonida ma'naviy meros nafaqat himoya vositasi, balki sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning drayveri bo'lib xizmat qilishi, bu esa o'z navbatida an'anaviy qadriyatlarning texnologik innovatsiyalar bilan "organik sintezi"ni talab etadi

Yana bir tadqiqotchi I.Ergashev Uchinchi Renessansning ijtimoiy-siyosiy jihatlarini tahlil qilib, uni "milliy yuksalishning strategik bosqichi" sifatida baholaydi [3]. Uchinchi Renessans faqat siyosiy yoki iqtisodiy loyiha emas, balki eng avvalo ontologik va kognitiv qayta qurilishdir. Bizning yondashuvimizga ko'ra, Uchinchi Renessansning ijtimoiy-siyosiy ko'lami uning tashqi formasi bo'lsa, ontologik va kognitiv qayta qurilish uning ichki determinatsiyasini tashkil etadi. Zero, jamiyatning ma'naviy transformatsiyasi inson tafakkurida "olamning subyektiv manzarasi" o'zgarmasdan turib, barqaror sivilizatsiyaviy yuksalishga erisha olmaydi. Binobarin, yangi

uygʻonish davri - bu eng avvalo milliy oʻzlikning global intellektual makonda yangi ontologik maqomini aniqlab olish jarayonidir.

**Metodologiya.** Ushbu ilmiy maqolani yozishda sivilizatsiyaviy sintez metodi (Anʻana va modernizatsiyani qanday qilib bir-biriga zid qoʻymasdan asoslash), komparativ-tipologik tahlil (Markaziy Osiyo tajribasini boshqa global transformatsiyalar bilan qiyoslash) va falsafiy prognozlash (Kelajakdagi “sivilizatsiyaviy tendensiyalar”ni modellashtirish) metodlardan foydalaniladi.

**Muhokama va natijalar.** Oʻtkazilgan falsafiy-metodologik tahlillar natijasida Markaziy Osiyo maʼnaviy makonining transformatsiyasini tadqiq etish jarayonida bir necha bosqichli tahliliy ishlar amalga oshirildi. Jumladan, mintaqaviy maʼnaviyatning tarixiy-falsafiy retrospektivasi oʻrganildi. Bunda Birinchi va Ikkinchi Renessans davridagi “universalizm” va “ensiklopedizm” anʻanalari bugungi kunda milliy oʻzlikni anglashning asosi sifatida qayta tahlil qilindi.

Globalashuvning Markaziy Osiyo xalqlari mentalitetiga taʼsiri ijtimoiy-gnoseologik jihatdan modellashtirildi. Bu bosqichda anʻanaviy qadriyatlarning raqamli reallik bilan toʻqnashuvi natijasida yuzaga kelayotgan “maʼnaviy ikkilanish” va uning yechimlari koʻrib chiqildi.

Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan “Uchinchi Renessans” sivilizatsiyaviy loyihasining konseptual asosi xalqaro tajriba bilan qiyosiy oʻrganildi.

Ushbu falsafiy-metodologik tahlillar natijasida Markaziy Osiyo maʼnaviy makonining transformatsiyasi va Uchinchi Renessansning sivilizatsiyaviy parametrlari boʻyicha quyidagi xulosalarga kelindi:

1. Maʼnaviy transformatsiyaning “Gibrid” modeli. Tadqiqot koʻrsatadiki, mintaqada kechayotgan transformatsiya jarayoni nafaqat gʻarblashuv, balki “tarixiy tajriba + texnologik innovatsiya” formulasiga asoslangan gibrid koʻrinishga ega. Bu modelda anʻanaviy maʼnaviy kodlar (masalan, jamoaviy masʼuliyat) raqamli jamiyatning tarmoqli tuzilmasi bilan sintezlashib, yangi ijtimoiy axloq normalarini shakllantirmoqda. Masalan,

Raqamli jamoaviylik: Markaziy Osiyo xalqlariga xos boʻlgan “hashar” yoki “mahalla” instituti bugungi kunda raqamli platformalarga koʻchib, ijtimoiy-kollektiv solidarizm va koʻngillilar (volontyorlik) harakatining oʻziga xos tarmoqli modelini hosil qildi. Bu - anʻanaviy jamoaviy masʼuliyatning zamonaviy axborot texnologiyalari bilan gibridlashuvidir.

Elektron taʼlimda ustoz-shogird anʻanasi: Masofaviy taʼlim platformalarida shunchaki axborot almashinuvi emas, balki mintaqa uchun xos boʻlgan “ustoz-shogird” etikasining saqlanib

qolishi, muloqotda lisoniy va axloqiy iyerarxiya belgilarining raqamli formatda namoyon bo‘lishidir.

Ushbu transformatsiya jarayonlarining mohiyatini tushunishda nemis sotsiologi va faylasufi Ulrix Bekning “tavakkalchilik jamiyati” nazariyasini Markaziy Osiyo kontekstiga moslashtirish metodologik ahamiyatga ega. U.Bek zamonaviy dunyoda modernizatsiya jarayonlari o‘zi bilan birga nazorat qilib bo‘lmaydigan tizimli xatarlarni ham keltirib chiqarishini ta’kidlaydi [4].

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, Markaziy Osiyo ma’naviy makonidagi transformatsiya jarayonlari o‘ziga xos “Gibrid model” asosida kechmoqda. Ushbu modelning fundamental xususiyati shundaki, u global sotsiomadaniy o‘zgarishlar keltirib chiqaradigan ekzistensial inqirozlar va ma’naviy yuzakilikka qarshi tura oladigan “aksiologik immunitet” mexanizmini o‘z ichiga oladi. Mazkur model doirasida sivilizatsiyaviy modernizatsiya bir tomonlama g‘arblashuv emas, balki ilg‘or texnologik yutuqlarni milliy ma’naviy meros filtri orqali o‘tkazib, ularni ijtimoiy-falsafiy jihatdan transformatsiya qilish jarayonidir. Binobarin, “Gibrid model” Uchinchi Renessansning shunchaki texnokratik rivojlanish emas, balki inson kapitali va axloqiy ustuvorlikning organik sinteziga asoslangan barqaror sivilizatsiyaviy andozasini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Tarixiy vorisiylikning “Kreativ re-generatsiya” mexanizmi. Vorisiylik shunchaki o‘tmishni saqlash emas, balki uni bugungi kun ehtiyojlariga moslashtirish ekanligi isbotlandi. Xususan, Buyuk ipak yo‘li davridagi "bag‘rikenglik va intellektual almashinuv" an‘anasi bugun Markaziy Osiyoning yagona ma’naviy-akademik makonini yaratishning konseptual asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Bu esa "Uchinchi Renessans"ning fundamental poydevori sifatida qaraladi.

Markaziy Osiyo xalqlarining intellektual merosi bugungi kunda shunchaki tarixiy yodgorlik emas, balki sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning funksional asosi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Bizning tahlillarimizga ko‘ra, bu jarayon quyidagi uchta darajada amalga oshadi:

Ontologik daraja: Sharq mutafakkirlari, xususan, Abu Nasr Forobiyning [5] “fozil jamoa” haqidagi qarashlari bugungi raqamli jamiyatda “axloqiy ijtimoiy tarmoqlar” va jamoaviy mas’uliyatning yangi andozalarini yaratishga xizmat qiladi. Zero, mutafakkir ta’kidlaganidek, fozil jamoaning asosiy belgisi a’zolarining o‘zaro yordami va oliy baxtga erishish yo‘lidagi intellektual birlashuvidir Bizning pozitsiyamizga ko‘ra, ushbu ontologik birlik bugungi virtual makonda axloqiy tartibga soluvchi vazifasini o‘tashi lozim.

Forobiyning ijtimoiy ontologiyasi bugungi “tarmoqli jamiyat” uchun ma’naviy karkas bo‘lib xizmat qiladi. Agar g‘arb modelida tarmoq faqat axborot almashinuvi vositasi bo‘lsa, biz taklif

etayotgan “Gibrid model”da u Forobiyona axloqiy prinsiplar bilan sug‘orilgan “fozil raqamli makon”ga aylanadi.

Gnoseologik daraja: Abu Rayhon Beruniyning [6] ensiklopedik va tanqidiy-tahliliy metodologiyasi hozirgi “global axborot xurujlari” sharoitida talabalarda fakt-cheking va intellektual filtrlash ko‘nikmalarini shakllantirishning metodik asosi bo‘lib xizmat qilmoqda. Zero, mutafakkir o‘zining tadqiqot uslubida ma’lumotlarni qat’iy tekshirish, shubha ostiga olish va turli manbalarni qiyoslash orqali haqiqatga erishish prinsiplarini ilgari surgan. Bu esa bugungi “post-haqiqat” davrida yoshlarda axborotga nisbatan “metodik shubha” va ratsional yondashuvni shakllantirishda muhimdir.

Beruniyning ilmiy merosi bugungi yolg‘on xabarlar (fake-news) dunyosida intellektual immunitetning gnoseologik asosi hisoblanadi. Biz taklif etayotgan “Gibrid model” doirasida talabalarning axborot bilan ishlash madaniyatini oshirishda Beruniyning ma’lumotlarni solishtirish metodidan foydalanish, milliy ta’lim tizimining kognitiv xavfsizligini ta’minlashda strategik ahamiyat kasb etadi.

Aksiologik daraja: Alisher Navoiyning [7] “komil inson” konsepsiyasi zamonaviy “inson kapitali” tushunchasini ma’naviy-axloqiy jihatdan boyitib, uni shunchaki iqtisodiy resurs yoki ishlab chiqarish omili darajasidan sivilizatsiyaviy sub’yekt darajasiga ko‘taradi. Navoiy talqinida insonning qadri uning nafaqat bilim va ko‘nikmalarida, balki “nafsni tiyish”, “adolat” va “elga xizmat qilish” kabi yuksak axloqiy fazilatlarida namoyon bo‘ladi. Bu esa “Gibrid model” doirasida iqtisodiy taraqqiyotni ma’naviy yuksalish bilan muvozanatlashtirishning bosh mezoni bo‘lib xizmat qiladi.

G‘arb iqtisodiy nazariyalarida “inson kapitali” ko‘pincha foyda olish vositasi (instrumental qiymat) sifatida qaralsa, Navoiy merosi asosidagi bizning yondashuvimizda u ichki ma’naviy quvvatga ega sub’yekt (substantiv qiymat) sifatida talqin etiladi. Bu esa Uchinchi Renessans davrida shaxsning nafaqat raqamli ko‘nikmalarini, balki uning sivilizatsiyaviy mas’uliyatini ham birdek rivojlantirish zaruratini asoslaydi.

3. Sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning ustuvor tendensiyalari: Sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning tizimlashtirilgan tendensiyalari mintaqaning nafaqat iqtisodiy-texnologik o‘rishini, balki uning ma’naviy-axloqiy barqarorligini ta’minlovchi strategik yo‘nalishlarni belgilab beradi. Ushbu tendensiyalar o‘zaro uzviy bog‘liqlikda bo‘lib, jamiyatning raqamli transformatsiyasi va milliy o‘zlikni saqlash jarayonlari o‘rtasidagi dialektik muvozanatni yuzaga chiqaradi. Tadqiqot natijasida Markaziy Osiyo mintaqasi uchun sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning quyidagi uchta ustuvor tendensiyasi tizimlashtirildi:

Intellektual pragmatizm: Ma'naviy qadriyatlarning bilimlar iqtisodiyoti va innovatsion tafakkur bilan uyg'unlashishi. Bu tendensiya qadriyatlarni shunchaki saqlash emas, balki ularni ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotning drayveriga aylantirishni nazarda tutadi. Professor M.Sharifxo'jayev ta'kidlaganidek, intellektual salohiyat ma'naviy omillar bilan boyitilgandagina milliy taraqqiyotning barqaror modelini yaratishga qodir bo'ladi [8]. Intellektual pragmatizm sharoitida milliy qadriyatlar (masalan, jamoaviylik, adolat, ilmga ehtirom) bilimlar iqtisodiyoti uchun zarur bo'lgan ijtimoiy kapitalni shakllantiradi. Bu esa Uchinchi Renessans modelining nafaqat raqamli texnologiyalarga, balki shu texnologiyalarni jamiyat manfaati yo'lida boshqara oladigan, ma'naviy shakllangan "intellektual shaxs" salohiyatiga tayanishini asoslaydi.

Raqamli gumanizm: Texnologik taraqqiyot markaziga inson ma'naviyati va axloqiy prinsiplarni joylashtirish (SI etikasi, axborot madaniyati). Bu tendensiya texnologiyaning inson ustidan hukmronligiga yo'l qo'ymaydigan ma'naviy "filtr" vazifasini o'taydi. Zero, ... o'zaro maqbullashgan tizimga o'tishi zamonaviy davr o'zgarishlarining talabi hisoblanadi [9]. Raqamli gumanizm doirasida biz taklif etayotgan "ma'naviy filtr" tushunchasi Sun'iy intellekt va raqamli algoritmlarning inson irodasini manipulyatsiya qilishiga yo'l qo'ymaydigan kognitiv to'siq vazifasini o'taydi. Binobarin, Uchinchi Renessansning raqamli arxitekturasi faqatgina "texnologik samaradorlik"ka emas, balki "axloqiy ustuvorlik"ka tayanishi shart. Bu esa raqamli makonda insonni algoritmlar ob'yekti emas, balki ma'naviy qarorlar qabul qiluvchi erkin sub'yekt sifatida saqlab qolish imkonini beradi.

Mintaqaviy o'zlik: Mintaqa xalqlarining umumiy sivilizatsiyaviy ildizlarini anglash orqali global raqobatbardoshlikka erishish tendensiyasi. Bu jarayon "mahalliy o'zlik"dan "mintaqaviy o'zlik"ka o'tish orqali global maydonda yagona sivilizatsiyaviy blok sifatida namoyon bo'lish imkonini beradi. Zero, hozirgi kunda Markaziy Osiyo xalqlarining umumiy ma'naviy merosi va madaniy integratsiyasi mintaqaning global geosiyosiy sub'yektlilik maqomini belgilovchi asosiy omilga aylandi [10]. Bizningcha, mintaqaviy o'zlikning shakllanishi - bu shunchaki siyosiy deklaratsiya emas, balki "Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy kodi"ni qayta tiklash jarayonidir. Bu kod Turkiy davlatlar tashkiloti doirasidagi integratsiyaning ma'naviy-falsafiy poydevorini tashkil etib, mintaqani "parchalanuvchi hudud"dan "yaxlit sivilizatsiyaviy markaz"ga aylantirishga xizmat qiladi. Binobarin, mintaqaviy o'zlik - Uchinchi Renessansning trans-chegaraviy va makro-hududiy xavfsizlik kafolatidir.

4. "Uchinchi Renessans poydevori"ning konseptual sxemasi. Ushbu poydevor ikki qatlamlardan iborat: pastki qatlam - fundamental tarixiy meros (islom ilmi, falsafa, adabiyot) va ustki qatlam - sivilizatsiyaviy modernizatsiya (fan, texnologiya, huquqiy davlat). Ularning sintezi

natijasida “Yangi ma’naviy antropologiya” - ya’ni ham ma’naviy, ham intellektual jihatdan komil inson tipi shakllanishi uchun zamin yaratiladi.

Fundamental qatlam (Pastki qatlam): Bu tarixiy-ma’naviy meros, islom sivilizatsiyasi ilmi, klassik falsafa va adabiyotni o‘z ichiga oladi. Prezident Sh.Mirziyoyev ta’kidlaganidek: “Biz Uchinchi Renessans masalasini strategik vazifa sifatida oldimizga qo‘yib, uni milliy g‘oya darajasiga ko‘tarmoqdamiz. Bunda birinchi va ikkinchi Renessansga asos bo‘lgan boy ilmiy-ma’naviy merosimiz poydevor vazifasini o‘tashi shart” [11].

Modernizatsion qatlam (Ustki qatlam): Bu zamonaviy ilm-fan, yuqori texnologiyalar, raqamli iqtisodiyot va huquqiy demokratik davlat tamoyillarini qamrab oladi. Ushbu qatlam jamiyatning global dunyoda raqobatbardoshligini ta’minlovchi dinamik qismdir.

Bizning yondashuvimizga ko‘ra, ushbu sxemaning o‘ziga xosligi qatlamlarning shunchaki mavjudligida emas, balki ularning organik sintezida namoyon bo‘ladi. Agar fundamental meros “tarkib” bo‘lsa, zamonaviy texnologiya “shakl”dir. Ularning sintezi natijasida yuzaga keladigan “Yangi ma’naviy antropologiya” - bu shunchaki bilimli mutaxassis emas, balki axloqiy prinsiplari milliy zaminga tayanadigan, intellektual salohiyati esa global standartlarga javob beradigan “Gibrid shaxs” tipidir.

Binobarin, Uchinchi Renessans poydevori - bu o‘tmishni ideallashtirish emas, balki tarixiy ma’rifatni zamonaviy innovatsiyalar bilan “integratsiya” qilish orqali yangi sivilizatsiyaviy sub’yektni tarbiyalash jarayonidir. Ushbu konseptual sxema milliy taraqqiyotning nafaqat iqtisodiy, balki ekzistensial xavfsizligini ham kafolatlaydi.

**Muhokama.** Tadqiqot doirasida olingan natijalar Markaziy Osiyo ma’naviy makonining transformatsiyasi chiziqli va bir tomonlama jarayon emas, balki murakkab sivilizatsiyaviy sintez ekanligini tasdiqlaydi. Ushbu natijalarning ilmiy ahamiyati quyidagi fundamental xulosalar orqali muhokama qilinadi:

1. “Gibrid model” va Aksiologik barqarorlik. Tahlillarimiz natijasida shakllantirilgan “Gibrid model” nemis sotsiologi U.Bekning “tavakkalchilik jamiyati” nazariyasiga nisbatan mintaqaviy alternativ sifatida namoyon bo‘ladi. Agar U.Bek modernizatsiyani nazorat qilib bo‘lmaydigan tizimli xatarlar manbai sifatida ko‘rsa, biz taklif etayotgan modelda “aksiologik immunitet” mexanizmi ushbu xatarlarni ma’naviy filtr orqali neytrallash imkonini beradi. Raqamli jamoaviylik (hashar va mahalla institutining virtual ko‘rinishi) va elektron ta’limdagi ustozshogird an’anasi shuni isbotlaydiki, texnologiya milliy mentalitetga moslashganda ijtimoiy anomaliyalarni emas, balki barqaror sivilizatsiyaviy andozalarni yuzaga chiqaradi.

2. Tarixiy vorisiylik va Yangi ma'naviy antropologiya. Muhokamaning markaziy nuqtasi - tarixiy vorisiylikning "Kreativ re-generatsiya" mexanizmidir. Forobiy, Beruniy va Navoiy merosini shunchaki tarixiy ma'lumot emas, balki gnoseologik va aksiologik drayver sifatida talqin qilishimiz, Uchinchi Renessansning sub'yekti bo'lgan "Yangi ma'naviy antropologiya"ni shakllantirish imkonini beradi. G'arb nazariyalaridagi "iqtisodiy inson" (homo economicus) modelidan farqli o'laroq, biz taklif etayotgan "Gibrid shaxs" tipi raqamli ko'nikmalarni ma'naviy mas'uliyat bilan sintez qiladi. Bu esa raqamli gumanizm tamoyillarini SI (Sun'iy intellekt) etikasi darajasigacha ko'tarish imkonini beradi.

3. Mintaqaviy o'zlik va Ekzistensial xavfsizlik. Sivilizatsiyaviy modernizatsiyaning ustuvor tendensiyalari, xususan, "Mintaqaviy o'zlik" kontsepti mintaqani global geosiyosiy parchalanishdan himoya qiluvchi strategik qalqon sifatida baholanishi lozim. "Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy kodi"ning qayta tiklanishi Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasidagi integratsiyani shunchaki iqtisodiy hamkorlikdan umumiy qadriyatlar platformasiga aylantiradi. Bu esa mintaqaning ekzistensial xavfsizligini - ya'ni o'zlikni saqlab qolgan holda global dunyoga integratsiyalashuvini kafolatlaydi.

4. Konseptual sxemaning metodologik qimmati. Uchinchi Renessans poydevorining ikki qatlamli sxemasi (fundamental meros va zamonaviy modernizatsiya) milliy taraqqiyotning dialektik xarakterini ochib beradi. Prezident Sh.Mirziyoyev tomonidan ilgari surilgan strategik vazifalar bilan uzviy bog'liqlikda ishlab chiqilgan ushbu sxema, ma'naviyat va texnologiyaning bir-birini inkor etmaydigan, balki to'ldiruvchi ("tarkib" va "shakl") munosabatini o'rnatadi. Bu esa o'tmishni ideallashtirishdan voz kechib, uni kelajak innovatsiyalari uchun intellektual resurs sifatida ishlatish imkonini beradi.

Shunday qilib, Markaziy Osiyo ma'naviy makonidagi transformatsiya - bu o'zlikni yo'qotish emas, balki uni yangi sivilizatsiyaviy bosqichda qayta kashf etish jarayonidir. Biz asoslagan "Gibrid model" va "Yangi ma'naviy antropologiya" konsepsiyasi Uchinchi Renessansni shunchaki iqtisodiy ko'rsatkichlar emas, balki inson kapitalining ma'naviy-axloqiy yuksalishi orqali baholash lozimligini ko'rsatadi.

**Xulosa.** Markaziy Osiyo ma'naviy makonining transformatsiyasi va Uchinchi Renessansning sivilizatsiyaviy parametrlarini tadqiq etish natijasida quyidagi umumiy xulosalarga kelindi:

Sivilizatsiyaviy sintez: Mintaqadagi modernizatsiya jarayoni bir tomonlama g'arblashuv emas, balki milliy ma'naviy kodlarning zamonaviy texnologik imkoniyatlar bilan

uyg'unlashuvdan iborat "Gibrid model" asosida kechmoqda. Ushbu model jamiyatning ekzistensial xavfsizligini ta'minlashda strategik ahamiyatga ega.

Kreativ vorisiylik: Tarixiy meros (Forobiy, Beruniy, Navoiy) bugungi raqamli jamiyat uchun shunchaki o'tmish emas, balki fakt-cheking, axloqiy algoritmlar va inson kapitalini shakllantirishning funksional poydevori bo'lib xizmat qiladi.

Yangi shaxs tipi: Uchinchi Renessansning bosh maqsadi - intellektual salohiyati yuqori, lekin aksiologik immuniteti mustahkam bo'lgan "Yangi ma'naviy antropologiya" vakilini tarbiyalashdan iboratdir.

Amaliy tavsiyalar:

Tadqiqot natijalaridan kelib chiqib, quyidagi amaliy takliflar ilgari suriladi:

Ta'lim tizimida: Oliy ta'lim o'quv dasturlariga Beruniyning tahliliy metodologiyasi va Forobiyning ijtimoiy etikasini zamonaviy "Raqamli gumanitar fanlar" (Digital Humanities) kontekstida o'qitishni joriy etish. Bu yoshlarda axborot xurujlariga qarshi kognitiv filtrni shakllantiradi.

SI etikasi bo'yicha milliy platforma: Davlat boshqaruvi va ijtimoiy xizmatlarda Sun'iy intellektni qo'llashda milliy ma'naviy qadriyatlarga asoslangan "Raqamli gumanizm kodeksi"ni ishlab chiqish. Bu texnologiyalarning insoniy fazilatlarni siqib chiqarishining oldini oladi.

Mintaqaviy akademik makon: Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) doirasida "Markaziy Osiyo sivilizatsiyaviy kodi" yagona raqamli platformasini yaratish. Ushbu platforma mintaqa yoshlari uchun umumiy ma'naviy va intellektual resurslar manbai bo'lib xizmat qilishi lozim.

Yoshlar siyosatida: "Gibrid model" tamoyillari asosida, yoshlarda nafaqat texnik ko'nikmalarni (Hard skills), balki milliy o'zlikka tayanuvchi yumshoq ko'nikmalarni (Soft skills) rivojlantirishga qaratilgan "Ma'naviy-intellektual rivojlanish strategiyasi"ni takomillashtirish.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon & Schuster, 1996. – 367 p.
2. Abdurahmonova M.N. Ma'naviy meros va ijtimoiy taraqqiyot dialektikasi. – Toshkent: "Faylasuflar jamiyati" nashriyoti, 2022. – 180 b.
3. Ergashev I. Yangi O'zbekiston: Milliy yuksalish strategiyasi. – Toshkent: "Ma'naviyat", 2023. – 240 b.
4. Бек У. Общество риска. На пути к другому модерну / Пер. с нем. В.Седельника и Н.Федоровой. – М.: Прогресс-Традиция, 2000. – 384 с.

5. Форобий, Абу Наср. Фозил одамлар шахри. – Тошкент: “Абдулла Қодирий номидаги халқ мероси нашриёти”, 1993. – 224 б.
6. Беруний, Абу Райхон. Танланган асарлар. II жилд. Ҳиндистон. / Таржимон А.Расулов. – Тошкент: “Фан”, 1965. – 512 б.
7. Навоий А. Маҳбуб ул-қулуб. / Мукаммал асарлар тўплами. 14-жилд. – Тошкент: “Фан”, 1998. – 264 б.
8. Шарифхўжаев М. Интеллектуал салоҳият – тараққиёт мезони. – Тошкент: “Ўзбекистон”, 2014. – 160 б.
9. Тургунова Н.Т. ИИВ Академияси доценти. “Ёшлар сиёсатини амалга оширувчи субъектларнинг ўзаро ҳамкорлиги” // “Falsafa va huquq” jurnali. – Toshkent, 2023. – №3. – 86-б.